

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeva
MAS'UL KOTIB Ozoda Tojiboyeva
TAHRIR HAY'ATI Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Nazef Shahrani (AQSh) Boqijon To'xliyev Muhammadjon Imomnazarov Bilol Yujel (Turkiya) Qosimjon Sodiqov Zulxumor Xolmanova Mustafa O'ner (Turkiya) Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Kimura Satoru (Yaponiya) Imran Ay (Turkiya) Aftondil Erkinov Nadir Mamadli (Ozarbayjon) Rashid Zohidov Otabek Jo'raboyev Bulent Bayram (Turkiya) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev Oysara Madaliyeva Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Saidakbar Muhammadaminov Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to‘plamdan fatvolar majmuyiga qadar	4
Ozoda Tojiboyeva "Favoyid ul-kibar"dagi farqli baytlar xususida	23
Sohiba Madirimova Avaz O‘tar qo‘lyozma devonlari tavsifi	37
Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev Klassik Şərq İrsinin Vizual Təqdimatında Or. 2265 "Xəmsə" Əlyazmasının Yeri və Nizami Gəncəvinin Mədəni Fəlsəfəsi	64
Gulzira G‘iyosiddinova Ojiz devoni qo‘lyozmalari tavsifi	77
LINGVISTIKA	
G‘aybullaboboyorov Oltinko‘l bitiktoshlari: eski turkcha so‘zlarning o‘zbek tilida saqlanish holati	94
Jo‘ra Xudoyberdiyev Chig‘atoy tiliga oid ayrim mulohazalar	114
Tünzalə İsmayılova XIV – XV əsr qipçaq lüğətlərinə ümumi baxış	135

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Saidakbar Muhammadaminov**

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas 4

Ozoda Tojiboyeva

Regarding the Different Couplets in the Manuscript Sources of "Favoyid ul-kibar" 23

Sohiba Madirimova

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans 37

Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev

The Place of the Or. 2265 "Khamisa" Manuscript in the Visual Representation of Classical Eastern Heritage and the Cultural Philosophy of Nizami Ganjavi (Artificial Intelligence-Based Analysis) 64

Gulzira Giyosiddinova

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan 77

LINGUISTICS**Gaybulla Boboyorov**

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language 94

Jura Khudoyberdiev

Some Remarks on the Chigatai Language 114

Tunzale Ismayilova

General Overview of 14th-15th Century Kıpçak Dictionaries 135

Ojiz devoni qo'lyozmalari tavsifi

Gulzira G'iyosiddinova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan shoir Xudoybergan oxund – Ojiz hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar berilgan. Bunda, asosan, shoir devoni qo'lyozmalari izchil tadqiq etilgan. Ojizning O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan 906/IV, 908/I, 6700 raqamli devon qo'lyozmalari o'rganildi. Shoir devoni qo'lyozmalaridagi g'azal, muxammas, musaddas, mustazod, musabba' va qasidalari haqida ma'lumotlar berildi.

Ojiz devoni qo'lyozmalari ilk bor matnshunoslik va manbashunoslik aspektida o'rganilib, qo'lyozmalar tarkibi, hajmi, yozuv xususiyatlari, kotibi, shu bilan birgalikda, muqova, tashqi tuzilishi haqida ma'lumotlar berildi. Bundan tashqari, Ojiz devonining tarkibiy tuzilishi, she'rlarning mavzu ko'lamiga singari masalalar yoritildi. Shoirning tab'i xud hamda taxmislari, mulamma' g'azallari va boshqa janrlari ilmiy jihatdan o'rganildi.

Kalit so'zlar: *g'azal, taxmis, qasida, mustazod, mulamma', tazmin.*

Kirish

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti Xiva xonligi hududida o'ziga xos tarixiy va madaniy jihatdan yuksalish davri bo'ldi. Bu davrda Muhammad Rahimxon II – Feruz rahbarligida shakllangan ijodiy muhit mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga, devonchilik, tarjimonlik hamda kitobat san'atining rivojlanishiga xizmat qildi va ko'plab iste'dod sohiblarini o'zida kashf etdi. Alalxusus, ularning biri Ojiz taxallusi bilan ijod qilgan Xudoybergan oxund edi.

Xudoybergan oxund Nizomiddin o'g'li XIX asrning birinchi yarmida Xorazmning Urganch tumani, Niyozmat arbob mahallasida dunyoga kelgan. Laffasiy tazkirasidagi ma'lumotlarga ko'ra, shoir 1837-yili tug'ilgan. U "Ojiz" taxallusida ijod qilgan. 1919-yili 82 yoshida vafot etgan [Лаффасий 1992, 92]. U diniy ulamo oilasidan yetishib chiqqan [Bobojon Tarroh 2011, 103]. Ojiz yuqori lavozimlarda, jumladan, qori, muftiy vazifalarida ishlagan.

¹ G'iyosiddinova Gulzira G'anijon qizi – tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: gulziragiyosiddinova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-2908-6877

Iqtibos uchun: G'iyosiddinova, G. G'. 2026. "Ojiz devoni qo'lyozmalari tavsifi". *Oltin bitiglar* 1: 77 – 93.

Haqgo'yligi, halol va oqko'ngilligi bilan xalq ishonchiga sazovor bo'lgan. Bu haqda zamondoshlari xotiralarida ma'lumotlar uchraydi. Ahmad Tabibiy esa uni shunday ta'riflaydi:

*Edi Ojiz asru mahoratnamo,
Kalomi edi xalqg'a dilkusho.
Muningdek ayon etti ma'ni durin
Ki, hayron etor dahr donishvarin* [1152, 613^b].

Ojiz hayoti va ijodi shu kungacha maxsus o'rganilmagan. Shoir biografiyasiga oid ma'lumotlar Bobojon Tarroh – Xodim hamda Laffasiy tazkiralarda uchraydi. S. Matkarimovanning “Tabibiy – tazkiranavis” [Matkarimova 2007, 91, 93, 105] nomli nomzodlik dissertatsiyasida, M.Berdimurodovanning “Muhammad Yusuf Rojiy Xorazmiy davri” [Berdimurodova 2013, 16] monografiyasida Ojiz haqidagi fikrlarni o'qish mumkin.

Ojiz, dastlab, qishloqdagi eski maktabni, keyin Xivadagi madrasalardan birini tamomlagan. Madrasada oxundlik vazifasida ishlagan va ko'plab shogirdlarni kamolga yetkazgan. U mufti, qozikalon lavozimlarida faoliyat olib borgan. Uning ilmiy darajasi ham juda yuqori baholangan, biroq xat yozish bilan shug'ullanmagan [Bobojon Tarroh 2011, 104].

Xudoybergan oxund “uzun bo'yli, sersoqol, yuzi andak chechaktobliroq, so'zlari mazali, saxiy kishi” bo'lgan. 45 yoshlaridan shoirlik bilan shug'ullana boshlagan. Juda iqtidorli va ilimli bo'lishiga qaramay, shoir devoniga o'zi tartib bermagan [Bobojon Tarroh, 1994, 60]. Ojiz she'rlarini xat yozish bilan shug'ullanuvchi shogirdlariga aytib yozdirgan.

Uning she'rlari hukmdor Feruz buyrug'i asosida devon holiga keltirilgan. Ojiz devoni nusxalari 906/IV, 908/I, 6700 O'zR FASHI qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Asosiy qism

Sharq mumtoz adabiyotida devon tuzish an'anasi shunday jarayonki, bunda devon tuzilishi, tarkibi va tartibi ijodkorning salohiyati hamda mahoratini ko'rsatib beruvchi oyna singari bo'lgan. Devon tuzishda shoirlar eski o'zbek yozuvidagi barcha harflar bilan tugaydigan she'rlar ijod qilishga intilganlar.

Akademik Sh. Sirojiddinov devonga qo'yiladigan talablarni shunday izohlaydi: “She'rlar qofiya va radifning oxirgi harfiga qarab alifbo tartibida joylashtiriladi. Mukammal devon alifboning barcha harflariga oid she'rlardan iborat bo'ladi. Devon debocha bilan ziynatlanadi. Debocha yozilmasligi ham mumkin... Devonlarda

janrlar ketma-ketligi buzilmasligi shart, ammo alifbo harflarida uzilish bo'lmisligi sharti bilan ayrim janrlardan namunalarni tushirib qoldirishga ruxsat etiladi" [Sirojiddinov 2019, 42].

Matnshunos olim O. Jo'raboyev devon tuzishning mukammal bir namunasi sifatida "Xazoyin ul-maoniy"ni ko'rsatib o'tadi: "Albatta, uning o'ziga xos jihatlari keyingi davrlar adabiyot ahlini e'tiborsiz qoldirmagan hamda XVI–XIX asrlarda bu asarlar devon tuzishning yorqin bir dasturi o'laroq xizmat qilgan" [Жўрабоев 2017, 71].

Aytish joizki, Xudoybergan oxund – Ojizning uchta devon nusxasi (906/IV, 908/I, 6700)da ham g'azallar devonchilik an'anasiga muvofiq arab alifbosi tartibida kitobat qilingan. Biroq 6700 raqamli devon qo'lyozmasida *dol* – ﺩ harfiga yozilgan *Biyo az partavi nuri raxt bazmam ziyo kardad* ; *Az bazmi vaslat mahvasho man bor ho doram umid* misralari bilan boshlanuvchi 7 va 9 baytli g'azallardan keyin *se* – ﺱ harfiga yozilgan *Junun daf'ig'a ul oy zulfi zanjiri erur bois* misrali 7 baytli g'azal ko'chirilgan. Keyin esa *zol* – ﺯ harfiga yozilgan g'azallar berilgan. Natijada alifbo tartibi buzilgan [Devoni Ojiz 1327 h. 29^a].

Devonning har uch nusxasida ham dastlab hamd g'azallar, keyin *Ochib labdin yuz uza g'uncha gulzoringg'a sallamno* misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal berilgan. Na't g'azallar esa devonning turli o'rinlarida uchraydi. Devon qo'lyozmalarida debocha yo'q. Faqat g'azal, mustazod, muxammas, musaddas (906/IV qo'lyozmada yo'q), musabba', qasida janrlaridagi she'rlar mavjud. Shoir har bir harfga turlicha miqdorda she'r bitgan. Masalan, shoir "ayn" (ع) harfi bilan tugaydigan 3ta g'azal yozgan bo'lsa, "lom-alif" harfi bilan tugaydigan 1ta g'azal yozgani ko'zga tashlanadi:

Matla':

*Manziling keldi jahonda anbiyolardin rafi',
Martabang uqboda bo'lmoq osiy ummatga shafi'.*

Maqta':

*Tut qo'lumni, yo Muhammad, deb choqirsa Ojizing,
Tongla Mahsharda oning faryodig'a bo'lg'il sami'*

[Devoni Ojiz 1327 h. 56^a].

Devon nusxalaridagi she'rlar nasta'liq xatida bitilgan. Faqatgina mulamma' g'azallarining arabcha qismi nasx xatida "harakatlar" (fatha , kasra , zamma) bilan berilgan.

906/IV raqamli ديوان عاجز – **"Devoni Ojiz"**. O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu qo'lyozmadan Murodiy, Farrux, Doyi, Ojiz, Xokiy, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Nadimiy, Xodim va Chokarning ijod namunalari o'rin olgan.


906/IV raqamli devon qo'lyozmasi "Basmala" bilan boshlanadi. So'ngra qizil siyohda "Xudoybergan Oxund mutaxallis Ojiz" sarlavhasi keltiriladi. Bu qo'lyozma devon shoirning 9 baytli hamd g'azali bilan boshlanadi. G'azalning matla' qismi quyidagicha:

زهی حسنینک بهاری ایلابان خوش هوا پیدا
اینتیب دور قدرتینک نقاش نقشی ماسوا پیدا

*(Zihi sun'ing bahori aylobon xushhavo paydo,
Etibdur qudrating naqqosh naqshi mosuvo paydo).*

Maqta':

اینتیب اظهار عجزینک عاجزا درکاهیغه باش قوی
ایتور هر مقصدینک بولسه خدایینک بی ریا پیدا
*Etib izhori ajzing, Ojizo, dargohig'a bosh qo'y,
Aytur har maqsading bo'lsa, Xudoying beriyo paydo.*



Devonning ko'chirilgan yili va kotibi haqida ma'lumot yo'q. Shu o'rinda, qo'lyozma tarkibiga kirgan Murodiy, Farrux, Doyi, Ojiz, Xokiy, Devoniy kabi barcha shoirlarning she'rlari ko'chirilgan sahifalar ko'zdan kechirildi. Natijada she'rlar matni bir kotib tomonidan kitobat qilinganligi ayon bo'ldi. Faqat Komil Devoniy she'rlari xotimasida quyidagicha ma'lumotlar uchraydi: "کاتیب ملا (Kotib Mullo) بالطه نیاز بن اوستا قوربان نیازملقی بخرات یازیب اتمامیغه یتکوردی" (*Kotib Mullo Boltaniyoz bin usto Qurbonniyoz mulaqqabi bi Xarrot yozib itmomig'a yetkurdi¹*) [Qo'lyozma devon 906, 237^a]. Demak, Ojiz she'rlarini ham *Mullo Boltaniyoz bin usto Qurbonniyoz mulaqqabi bi Xarrot* kitobat qilgan.

906/IV raqamli devon qo'lyozmasida 329 g'azal (shundan 132tasi hoshiyada), 33 muxammas (shundan 12tasi hoshiyada), 4ta "Qasidayi Ojiz" (shundan 2tasi hoshiyada), 2ta mustazod (1tasi forsiy), 1ta musabba' ko'zga tashlanadi. Jami – 369 ta she'r.

Bu qo'lyozma devon nusxasida Ojizning *a'yn* – ع, *g'ayn* – غ,

¹ Boltaniyoz Nadimiy Shexlo qishloqlik Usta Qurbonniyoz xarrotning o'g'lidir. Nadimiy yoshligida akasi Muhammad Yoqub Xarrot devondan xatning qoida va usullarini o'rgangan. Boltaniyoz Nadimiy taxallusi bilan turli uslubda she'rlar ham yozgan. O'zining ash'orini to'plab devon ham tuzgan. **Qarang:** [Муродов 1971, 120].

lom-alif (لا) harflari biln yakunlangan g'azallari uchramaydi.

Ushbu devon qo'lyozmasida Ojizning Feruz, Tabibiy, Ogahiy, Munis, Amiriylarning g'azallariga yozilgan taxmislari ham bor. Quyida shoirning Shermuhammad Munis qalamiga mansub *Jonbaxsh labing uzra chiqmish xatti rayhoni*y misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azaliga yozilgan 7 bandli taxmisning birinchi va oxirgi bandlarini berib o'tdik:

Matla':

*Yuz safhasiga yozding san toza bir inshoni,
Har bir qoshing etmishsen har birini unvoni,
Ishq ahliga aylorda har lahza bayon oni,
Jonbaxsh labing uzra chiqmish xatti rayhoni,
Kim ko'rdi Hizr birla bir yerda Masiyhoni?!*

Maqta':

*Onsiz bu jahon ichra yurmak tarab ermoskim,
Dard-u g'am Ojizg'a hargiz ta'b ermoskim,
Tiyyig'a boshin bermoy ketmok o'b¹ ermoskim,
Payvasta yarolardin shukrim, ajab ermoskim,
Gulrangi qabo topmish Munis tani uryoni.*

Professor D. Yusupovanning "Aruz va mumtoz poetikaga kirish" kitobida qasidaning ikki xil turi haqida ma'lumot berilgan. Birinchisi *qasidayi tomm* bo'lib, u to'rt qismdan iborat bo'ladi: 1) nasib – tabiat tasviri; 2) guzirgoz – nasib bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytdan tashkil topuvchi qism; 3) madh – asosiy qism; 4) qasd – mamduh (madh etilayotgan shaxs)ga niyat va istaklar bildiriladigan qism. Qasidaning ikkinchi turi *qasidayi mujarrada* deb nomlanadi. Ma'nosi chala, ya'ni to'liq bo'lmagan qasida demakdir [Yusupova 2020, 211].

Ojiz qalamiga mansub qasidalar kotib tomonidan "قصيده" tarzida raqamlab berilgan bo'lib, 906/IV va 908/I qo'lyozmalarida aynan bir xil keltirilgan. Qasidalarining umumiy adadi 264 misrani tashkil etadi (4 qasida tarkibi: 66+72+54+72=264 misra). Hajmi va mazmunini hisobga olsak, har bir qasida mustaqil alohida she'r ekanini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ularning vazni ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, birinchi qasida – *rajazi musammani solim*, ikkinchi va uchinchi – *hazaji musammani solim*, to'rtinchisi – *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Devondagi ilk qasida Xorazm ta'rifi hamda hukmdorni tavsif etsa, ikkinchi qasida to'liq Muhammad Rahimxon II va uning el

¹ O'b – xo'b (yaxshi) so'zining shevaga xos tarzda ishlatilishi.

oldiga dasturxon yozib, to'y berganini aks ettiradi. Mavzu jihatidan qasidalar Xorazm vasfi, Muhammad Rahimxon II madhi, Navro'z tasviriga bag'ishlangan. Dastlabki qasida jannatmisol Xiva shahri haqida:

*Xorazm Xivaq shahridur iqlim aro jannatmisol,
Go'yo ongo solmish nazar lutfila "Hay lo yazol".
Daryosidin oqg'on suyi Firdavsi a'lodin kelur,
Chekmos havosidin oning hargiz tabiatlar malol.*

Maqta':

*Ojiz, agar Xorazmni ta'rif etor bo'lsong degil,
Bu vasflor sidqig'adur hazratni bog'i toza dol.*


Devon husnixati u qadar chiroyli emas. Qo'lyozma boshidagi xatga qaraganda, kotib uni biroz shoshilib yozgan. She'rlar asosiy matnga hamda hoshiyalarga yozilgan. Har sahifada 17–19 satr she'r joylashtirilgan. Kotib ayrim o'rinlarda she'rlarni raqamlab bergan. Lekin raqamlashdagi tartib buzilgan. Hoshiyadagi she'rlar raqamlanmagan. Faqat “مخمس”, “غزل عاجز”, “غزل” tarzida qizil siyohda berilgan o'rinlar ko'p. Sahifalar raqamlanmagan. Shuningdek, devon sahifalaridagi tartibni saqlash maqsadida kotib har varaqdagi “b” sahifaning birinchi so'zini “a” sahifaning pastki qismiga qiya shaklda poygir qilib berib ketgan.

Qo'lyozma muqovasi qattiq. Unga qizil charm qoplangan, muqovasi och yashil rangda, muqovaning o'rta, yuqori va past qismlariga naqshinkor muhr bosilgan. She'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida bitilgan. Har bir shoir she'rlaridan keyin 2-3 varaq bo'sh qoldirilgan. Ojiz she'rlari 906/IV qo'lyozmaning 69^b-betidan boshlab to 138^b-betigacha ko'chirilgan. Hajmi: 327 sahifa. O'lchovi: 27x17,5.

908/I raqamli ديوان عاجز – “Devoni Ojiz”. O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan bu qo'lyozmada Ojiz, Doyi, Haqiriy va Xokiyning ijod namunalari o'rin olgan. Ojiz she'rlari 908/I qo'lyozmaning 1^b-113^a sahifalarida taqdim etilan.

Devonda dastlab بسم الله الرحمن الرحيم kalimasi, so'ng qizil siyohda “Xudoybergan Oxund mutaxallis Ojiz” sarlavhasi berilgan. Qo'lyozmada Ojiz she'rlari birinchi ko'chirilgan bo'lib, undagi 9 baytli hamd-g'azal 906/IV raqamli qo'lyozma devonda berilgan hamd-g'azal bilan aynan bir xil (*Zihi sun'ing bahori aylabon xushhavo paydo, / Etibdur qudrating naqqosh naqsh mosuvo paydo*).

¹ Hay lo yozol – Abadiy tirik.



Ushbu manbaning ko'chirilgan yili va kotibi haqida devon kolofonida quyidagi ma'lumotlar keladi:

"الحمد لله والمنه بو كتاب عاجزكم بالاعمر السلطان نادر الزمان اعنى ابولمظفر والمنصور ابو لغازي سيد محمد رحيم بهادر جان دام ملكه اول جناب عالي نينك فرمان لاري بيله بير مينك اوچيوز يكرميه بيش لا نجي بيلي بو فقير الحقير محمد يوسف المتخلص بالچاكر بن محمد يعقوب ديوان ملقب بخرات اتمامه يتكوردى. (Alhamdulillah valminna bu kitobi Ojizkim, boamri as-sultoni nodir-uz-zamon a'ni Abulmuzaffar val-Mansur Abulg'ozī Sayyid Muhamadrahim Bahodirxon dom mulkan ul janobi oliyning farmonlari bila bir ming uch yuz yigirma beshlanchi yili bu faqir ul-haqir Muhammad Yusuf al-mutaxallis bit-Chokar bin Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bixarrot itmomig'a yetkurdī) [Devoni Ojiz, 1^b-113^a]. Hijriy 1325-yil milodiy 1907-yilga to'g'ri keladi.

908/I raqamli qo'lyozma devonda 526 g'azal (shundan 177tasi hoshiyada), 38 muxammas (shundan 5tasi hoshiyada), 3ta mustazod (shundan 1tasi hoshiyada), 3ta musaddas (barchasi hoshiyada) o'rin olgan. Bundan tashqari, 4ta qasida (tarkibi: 54+72+66+72=264 misra), 1ta musabba' qo'lyozmadan joy olgan. Jami: 575ta she'r ko'chirilgan.

Bu devon qo'lyozmasida Ojizning 906/IV raqamli devon qo'lyozmasida berilgan taxmislaridan tashqari 4ta taxmis ko'p kiritilgan. Bular – Navoiy, Feruz va Ravnaq g'azallariga yozilgan taxmislardir. Ular orasida 6 ta tabi' xud taxmis ham bor.

She'rlar nasta'liq xatida bitilgan. Ojiz ijodidan namunalar hoshiyalarga ham bitilgan. Har sahifada 17–19 satr she'r joylashgan. Kotib qo'lyozmaning asosiy matnidagi she'rlarni raqamlar asosida bergan. Biroq ba'zi o'rinlarda she'rlar raqamlanmagani ko'zga tashlanadi. Hoshiyadagi she'rlar qizil va qora siyohda, غزل, غزل عاجز, غزل غزل tarzida berilgan. Qo'lyozmaning 63^b va 64^a sahifalari (hoshiyasi) ga zamondosh shoir – Oqilning: Ey moh, yuzing xurshididin yuz mohtobon munfail va Bir oqshom lutf etib kulbamg'a, ey oromijon, kelgil misralari bilan boshlanuvchi g'azallari noo'rin ko'chirilgan.

Keyinchalik bu g'azallar matni bo'yab o'chirilgan. Ushbu g'azallardan birining matla'si quyidagicha:

*Bir oqshom lutf etib kulbamg'a, ey oromijon, kelgil,
G'amim sharhin sango yig'lob qilay bir-bir bayon kelgil.*

Maqta':

*Hazin Oqilni shod et yod etib, ey dilbari barno,
Gar ag'yor ahlidin qilsong oni bir tun nihon kelgil*


[Devoni Oqil 950, 47^a].

Kotib qo'lyozmani ikki xil usulda sahifalagan: 1) bunda 1^b bet = 1 sahifaga, 2^a = 2 sahifaga, 2^b = 3 sahifaga.... 2) bu tartibda esa 2^a = 1 sahifaga, 3^a = 2 sahifaga, 4^a = 3 sahifaga.... Shuningdek, devon sahifalaridagi tartibni saqlash maqsadida kotib har varaqdagi "a" sahifaning birinchi so'zini "b" sahifaning pastki qismiga qiya shaklda poygir sifatida berib ketgan.

Qo'lyozma muqovasi qattiq. Muqova rangi to'q yashil. Qo'lyozma muqovasining o'rta, yuqori va past qismlariga naqshinkor muhr bosilgan. Muqovaning yuqori va pastki qismidagi unvon ichida "Amali Muhammad Rahim sahhof – 1326" degan yozuv berilgan. She'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda nasta'liq xatida bitilgan. Har bir shoir she'rlaridan keyin 2-3 varaq bo'sh qoldirilgan. Hajmi: 328 sahifa. O'lchovi: 27x17,5.

6700 raqamli ديوان عاجز – "Devoni Ojiz". O'zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu qo'lyozmada faqat Xudoybergan oxund – Ojizning she'rlari jamlangan.

Qo'lyozma devon بسم الله الرحمن الرحيم kalimasi, so'ng – qizil rangda "Xudoybergan oxund mutaxallasi Ojiz" sarlavhasi berilgan. Qo'lyozma 906/IV va 908/I raqamli devon qo'lyozmalaridagi kabi 9 baytli hamd g'azal bilan boshlanadi. Ammo 906/IV hamda 908/I qo'lyozma nusxalardan farqli ravishda kotib ushbu g'azal matlasidagi "sun'ing" so'zini "husning" so'zi bilan almashtirgan (*Zihi **husning** bahori aylobon xushhavo paydo, / Etibdur qudrating naqqosh naqsh mosuvo paydo*).



Qo'lyozma hijriy 1327-, milodiy 1909-yili ko'chirilgan. Devon kolofoni quyidagicha: الحمد لله والمنه اوشبو ديوان عاجزكم بالمر السلطان الزمان ونادر دوران باعث الامن والامان سليمان نشا فقير پرور و عدل كستر الخاقان ابن الخاقان اعنى ابوالمظفر والمنصور ابولغازى سيد محمد رحيم بهادر خان اول جناب نينك فرمان على لارى فقير الحقير ملا محمد يوسف المتخلص بالچاكر ولد دحم يعقوب ديوان ملقب بخرات بير مينك (Alhamdulillah val minna ushbu devoni Ojizkim, boamri sulton uz-zamon va nodiri davron bois ul-amn val-amon Sulaymon nasho faqirparvar va adl kistar al-xoqon ibn xon a'ni Abul Muzaffar val-Mansur Abulg'ozi sayyid Muhammad Rahim Baxodirxon, Ul janobning farmoni oliylari faqir ul-haqir mullo Muhammad Yusuf al-mutaxallisi bit-Chokari valadi Muhammad Ya'qub devoni mulaqqabi bi-Xarrot bir ming uch yuz yigirma yettilanchi yili itmom sarhadig'a yetkurdi. Tammam 1327) [Devon,1^b-351^a].

Qo'lyozmada 558ta g'azal (shundan 136tasi forsiy, 416tasi turkiy tilda, 6ta mulamma'), 3ta mustazod (1tasi forsiy, 2tasi turkiy), 37ta muxammas (15tasi forsiy, 22tasi turkiy), 6ta musaddas (1tasi forsiy, 5tasi turkiy), 1 musabba' (turkiy), 6ta qasida (262+82=344 misra) o'rin olgan – ja'mi 611 she'r jamlangan.

6700 raqamli qo'lyozma devonda Ojizning arab alifbosidagi 29ta harf bilan tugaydigan g'azallari bor. 906/IV va 908/I devon qo'lyozmalarida esa arab alifbosidagi 28 harf bilan tugaydigan g'azallar uchraydi. Ular orasida lom-alif harfi bilan tugallanadigan g'azallar uchramaydi. 6700 raqamli devon qo'lyozmasidan o'rin olgan "lom-alif" harfi bilan tugaydigan" g'azal matlasi quyidagicha:

Matla':

*Ko'rsotib yuz ikki la'li dilni majnun qildilo,
Ishqi dashti ichra bu mahzunni mamnun qildilo.*

Maqta':

*Jismi jondin yu ilik Ojiz bu oylar ishqida,
Nechalardin jon olib ko'zlarni marhun qildilo*

[Devoni Ojiz 1327 h. 109^b].

Ushbu qo'lyozmadan o'rin olgan 6ta qasidaning 2tasi (82 misra) 906/IV va 908/I devon qo'lyozmalarida uchramaydi. Bular: *Jahon topdi ziynat chu kelgoch bahor* (Devoni Ojiz 1327 h. 151^b) (20 bayt) hamda *Kelib yer yuzin qildi jannat bahor* [Devoni Ojiz 1327 h. 152^a] (21 bayt) misralari bilan boshlanuvchi qasidalaridir. Qasidalar mavzu jihatidan – Xiva ta'rifi, hukmdor madhi, bahor vasfi, Navro'z tasvirini aks ettirishi bilan farqlanadi.

Devonda shoirning *mulamma'* san'atida yozilgan g'azali ham berilgan va u qo'lyozmada 40-o'rinda keladi. Shoirning ushbu *mulamma'si* o'ziga xos. Masalan, g'azalning toq misrasi turkiy, juft misrasi esa arab va forsiy tillarda bitilgan. G'azal matlasi quyidagichadir:

*Bu jihatdin man qulig'a ayladi ul oy itob,
"Kunta ma'luman lahu bil hubbi fi vaqtil hisob".*

Devondagi 108-g'azal esa turkiy va forsiy tillarda bitilgan. Bu *mulamma'* 40-o'rinda berilgan *mulamma'-g'azaldan* mutlaq farq qiladi. G'azalning har bir misrasi ham turkiy, ham forsiy tillarda ko'zga tashlanadi. G'azalning matlasi shunday:

*Zulfig ochg'och, ey dilbar, chun raxt namoyon shud,
Kecha zulmati ichra dov badri tobon shud.*

Ojiz ijodiy merosida 15, 17 baytli g'azallar ham mavjud. G'azallarning ko'pi 7, 8, 9 baytli. Shoirning 5 baytli g'azallari ham uchraydi.

Ushbu qo'lyozma devondan ham shoirning *tab'i xud* hamda *taxmislari* o'rin olgan. Turkiy tilda yozilgan *tab'i xudlar* soni 1ta, forsiy tilda esa 7ta. Bu qo'lyozma devondan shoirning Navoiy, Feruz, Ogahiy, Munis, Tabibiy, Nadimiy, Amiriy, Ravnaq, Vahshiy, Kamoliy, Haydar, Sultoniy va Rojiyning g'azallariga yozilgan *taxmislari* o'rin olgan.

Ojizning Ravnaq g'azaliga yozilgan muxammasining ilk bandi:

*Kun-bakun bo'ldi qurun ishqing aro javlonim,
Chekodur furqat ila mushkila har osonim,
Borg'oli ko'ying aro qolmadi hech darmonim,*

*Kelgil, ey mohliqo, nodirayi davronim,
Kim chiqor ko'kka g'amingda kechalor afg'onim.*

Oxirgi bayt:

***Ojizingdek** kechalor yotdi yo'lingda Ravnaq,
Nechakim jonni fido qildi yo'lungda Ravnaq,
Xonumonini nisor etdi yo'lungda Ravnaq,
Nechakim jonni fido qildi yo'lungda **Ravnaq**,
Demodingkim qoni ul zori balogardonim*

[Devoni Ojiz 1327 h. 125^b].

Ojiz ijodida Amiriyning *Bazm aro har dam labing maxmurig'a qondur avaz, /Kechalar tong otg'uncha xunobi hijrondur avaz* bayti bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'langan 9 bandli taxmisi [Devoni Ojiz 1327 h. 128^b] mavjud:

*Xatti xoling domig'a murg'i dil o'lmish asir,
Zulfing-o vobastadur dahr ichra shoh-u vazir,
Sunbuling torida **Ojiz** istasa bo'yi abir,
Kokiling savdosida jam'iyat istardim **Amir**,
Xotiri oshufta-vu tab'i parishondur evaz?*

Ojiz *Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim* (14-muxammas), *Xushomadi, xushomadi, eymahliqo, xushomadi*, (18-muxammas), *Xush keldingiz, xush keldingiz, ey mahliqo, xush keldingiz* (19-muxammas) misralari bilan yakunlanuvchi tarji' muxammaslari ham bor.

Ojizning 906/IV, 908/I hamda 6700 raqamli devon qo'lyozmalaridan o'rin olgan taxmislari son jihatdan bir-biridan farq qiladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

1-jadval

N ^o	Ojiz taxmislar	906/IV-inv.	908/I-inv.	6700-inv.
1	Navoiy	4	5	5ta
2	Feruz	2	4	4ta
3	Kamoliy	4	4	4ta
4	Rojiy	2	2	2ta
5	Tabibiy	2	2	2ta
6	Munis	1	1	1ta
7	Ogahiy	2	2	1ta
8	Nadimiy	1	1	1ta
9	Amiriy	2	2	1ta
10	Ravnaq	-	1	1ta
11	Vahshiy	1	1	1ta
12	Haydar	1	1	1ta
13	Sultoniy	1	1	1ta

14	Zebiniso	1	1	1ta
Taxmisning umumiy soni:		24ta	28ta	26ta
Jami: 28ta				

Ojiz mustazodlarida Navoiyga ergashish ko'zga tashlanadi. Uningturkiytilda bitilgan mustahzodlaridan biri shunday boshlanadi:

*Oy yuzni ochib bu kecha kel bazmima, jono,
qurbon sango jonim,
Vaslingni tilob hajr aro sarf o'ldi hamono,
xonim ila monim.*

Bu mustahzodning shunday yakunlanadi:

*Ojizni hama budi-yu joningni duosi,
har kecha-yu kunduz,
Sandin ongo doim yetordur bazl ila saxo,
ey shohi jahonim.*

Kotib Muhammad Yusuf Chokar devonning ushbu nusxasini ham nasta'liq xatida go'zal husnixatda ko'chirgan. Har sahifada 19–21 satr she'r bor. Kotib she'rlarni raqamlab taqdim etgan. Ammo raqamlashda tartib buzilgan o'rinlar mavjud. Bu qo'lyozmada ham she'rlar غزل عجز, غزل غزل tarzida berilgan. Bu sarlavhalar qizil, ayrim o'rinlarda qora siyohda yozilgan. Qo'lyozma boshida 3 varaq, oxirida 2 varaq bo'sh qoldirilgan. She'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda bitilgan. Hajmi: 153 sahifa. O'lchovi: 28,5x18,8 sm.

Kotib qo'lyozmani ikki xil usulda sahifalagan: 1) bunda 1^b bet = 1 sahifaga, 2^a = 2 sahifaga, 2^b = 3 sahifaga.... 2) bu tartibda esa 2^a = 1 sahifaga, 3^a = 2 sahifaga, 4^a = 3 sahifaga.... Shuningdek, devon sahifalaridagi tartibni saqlash maqsadida kotib har varaqdagi "a" sahifaning birinchi so'zini "b" sahifaning pastki qismiga qiya shaklda poygir sifatida berib ketgan.

Qo'lyozma muqovasi yupqa. Ta'kidlash kerakki, bu qo'lyozma muqovasi boshqa nusxalardagi singari qattiq karton bilan maxsus muqovalanmagan. Muqovaning yuqori qismida quyidagi ma'lumotlar yozib qoldirilgan: "1112 تازہ دین یازیلغان / مسمی به خدای رقم / دیوان عجز . برکان مفتی کاتب محمد یوسف جاکر بن محمد یعقوب / یازیلغان وقتی ۱۱۱۲) ۱۱۱۲) raqam/ Devoni Ojiz/ tozadin yozilg'on/ musamma ba Xudoybergan mufti/ kotib Muhammad Yusuf Chokar bin Muhammad Ya'qub/ yozilg'on vaqti 1327).

Asar hijriy 1327-yili ko'chirilgan. 78^a-bet pastki qismidagi to'rtburchak ichida, ko'pburchakli dumaloq naqshda (No 4) zavod muhri tushirilgan.

Ushbu qo'lyozmaning 1^a va 153^a-betlariga muhr bosilgan va

unda "In.t Vostochnix rukopi- 6700 AN UzSSR g. Tashkent" yozuvini o'qishimiz mumkin.

Shuningdek, qo'lyozma muqovasining yuqori qismida arab harflari bilan 155 19 , 18 سطر , 28 ورق , خطى ½ , تیلی اوزبکی , ولچاو , (155) نستعلیق varoq", "18 satr", "19x28 ½ o'lchov", "tili o'zbakiy", "xati nasta'liq") yozuvlari qora qalam bilan yozilgan.

Quyidagi jadvalda shoirning devon qo'lyozmalaridan o'rin olgan she'rlari janrlar kesimida berildi.

2-jadval

№	Janrlar	906/IV inv.	908/I inv.	6700 inv.	Devon nusxalaridagi jami she'r miqdori
1	G'azal	329	526	558	559 (8850)
2	Muxammas	33	38	37	40 (1655)
3	Musaddas	–	3	6	6 (258)
4	Mustahzod	2	3	3	3 (50)
5	Musabba'	1	1	1	1 (77)
6	Qasida	4	4	6	6 (344)
She'rlar soni:		369	575	611	11234 misra

906/IV hamda 908/I qo'lyozma devon nusxalarida *laziz* radifiga ikkitadan g'azal bitilgan va ularning matlallari quyidagichadir:

- 1) *Lablarining sharbatidur obi hayvondin laziz,*
Yodi bo'lmish ko'nglum ichra jism aro jondin laziz.
- 2) *Jismi bemoring'a keldi dardi darmondin laziz,*
Jong'a har zulm-u sitam gar yetsa jonondin laziz.

Ammo 6700 raqamli qo'lyozma devon nusxasiga *laziz* radifli birinchi g'azalning 1-misrasi yozilgan va ikkinchi g'azalning davomi ko'chirilgan. Natijada, yuqoridagi 2ta devon nusxasida *laziz* radifli 2ta g'azal yozilgan bo'lsa, 6700 raqamli devon nusxasiga "*laziz*" radifli 1ta g'azal ko'chirilgan.

Ta'kidlash kerakki, mana shu 906/IV, 908/I, 6700 raqamli devon qo'lyozmalaridagi ba'zi she'rlar bir-birini takrorlaydi. Eng to'liq nusxa 6700 raqamli qo'lyozmadir. Masalan, 906/IV hamda 908/I raqamli devon qo'lyozmalarida uchramaydigan *Jon berur o'lgon tanimga gar desa jonon hadis; Kelgoch qoshimg'a ul sanam qosh tig'ini har yon chekib; Ko'rsatib yuz iki la'li dilni majnun qildilo deb boshlanuvchi g'azallari, Jahon topdi ziynat chu kelgach bahor hamda Kelib yer yuzin qildi jannat bahor* qasidasi 6700 devon qo'lyozmasida berilgan. Buning sababi – shoir 1907-yillardan keyin yozilgan lirik me'rosidan namunalarni 1909-yili 6700 raqamli devonga kitobat

qilingani ma'lum bo'ladi.

Shuningdek, 908/I va 906/IV raqamli devon nusxalarida Ogahiy (*Zihi jonlarg'a vasling shavqidin ayshu tarab paydo*) va Amiriy (*Bazm aro har dam labing maxmurig'a qondur evaz*)ning 1 ta g'azaliga 2tadan yozilgan taxmis berilgan. Ammo 6700 qo'lyozmaga har 2 ta taxmisdan faqat 1 tasi ko'chirilgan. Shuningdek, 906/IV hamda 908/I devon qo'lyozmalarida Feruzning (*"Yetti-yu ketti"* radifli) g'azaliga yozilgan taxmis mavjud, ammo 6700 raqamli qo'lyozma devonda esa xuddi shu g'azalga yozilgan boshqa muxammas bor. Bundan tashqari, 6700 raqamli devon qo'lyozmasida mavjud bo'lgan 1 ta forsiy muxammas (*Kor man az g'ayri o'tjarid uryon niyatam*) qolgan ikki devon nusxasida yo'q.

906/IV, 908/I, 6700 raqamli devon qo'lyozmalaridagi bir-biridan farq qiluvchi muxammaslar jadvali:

3-jadval

906/IV-inv. qo'lyozma devon.	908/I-inv. qo'lyozma devon 1325/1907-yil	6700-inv. qo'lyozma devon 1327/1909-yil
—	—	<i>Kor man az g'ayri o'tjarid uryon niyatam, (9 band)</i>
<i>Kelib uyquda boshim uzra bedor etti-yu ketti...</i> (Feruzga muxammas, 8 band)	+	—
<i>Ishqing ar yo'lig'a kirsang ashk chandondur evaz...</i> (Amiriyga muxammas, 9 band)	+	—
<i>Erur tillarga hamdingdin ajab zavq-u talab paydo...</i> (Ogahiyga muxammas)	+	—
—	—	<i>Chekib qosh tig'ini ishq ahli qatlig'a qohir...</i> (Feruzga muxammas, 8 band)

Xulosa

Ojiz qo'lyozma devonining uch nuxsasi bizgacha yetib kelgan. Ular O'zR FASHI asosiy fondida 906/IV, 908/I hamda 6700 raqamlari ostida saqlanadi.

Ojiz she'rlaridan namunalar dastlab, 906/IV raqamli devonga Mullo Boltaniyoz bin usto Qurbonniyoz mulaqqabi bi Xarrot tomonidan kitobat qilingan. Ammo 906/IV devonining yozilgan sanasi noma'lum. Undan g'azal, muxammas, qasida, mustazod va musabba' o'rin olgan. Ushbu qo'lyozma devonda jami – 369ta she'r bor.

Qo'lyozma devonning ikkinchi nusxasi 1907-yili Muhammad Yusuf Chokar tomonidan kitobat qilingan. Bu qo'lyozma 908/I raqami ostida saqlanmoqda. unga 575ta she'r kiritilgan. Bular g'azal, muxammas, musaddas, qasida, mustazod, musabba' janrlaridan iborat.

Shoir devonining uchinchi nusxasi – 6700 raqamda va u ham Muhammad Yusuf Chokar tomonidan 1909-yili ko'chirilgan. Bu qo'lyozmada 906/IV, 908/I raqamli devon qo'lyozmalariga qaraganda she'rlar son jihatidan ko'proq. Devonning har uch nusxasi ham shoir hayotlik payti kitobat qilingan. Shoirning ushbu devon qo'lyozmalarida jami 615ta she'ri berilgan. Shoirning devon qo'lyozmalaridagi adabiy merosi ko'lami o'n bir ming ikki yuz o'ttiz to'rt (11234) misrani tashkil etadi.

Ojiz g'azal, muxammas, mustazod, musaddas, musabba', qasida janrlarida ijod qilgan. Shoir Navoiy, Feruz, Tabibiy, Rojiylarning ko'plab g'azallariga taxmis bog'lagan. Uning ijodida 2ta tab'i xud taxmisi ham mavjud.

Ojiz hayoti va ijodi shu kungacha matnshunoslik va manbashunoslik aspektida kompleks o'rganilmagan. Uning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rnini belgilash muhim masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 906/IV.

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 908/I.

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 950.

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 6700.

Сирождидинов, Ш., 2019. *Матншунослик сабоқлари*. Тошкент: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi.

Мадиримова, С., 2021. *Мутриб Хонахароб ва унинг адабий мероси*. ф.ф.б.ф.д. (PhD) дисс. Тошкент.

Yusupova, D., 2020. *Aruz va mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Akademnashr.

Муродов, А., 1971. *Ўрта Осиё хатмотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан.

Исмоилова, Г., 1995. *Феруз даври Хоразм адабий муҳити*. Филол. фан. номз. дисс. Тошкент.

Жўрабоев, О., 2017. *Матннинг матношти сирлари*. Монография. Тошкент: Tamaddun.

Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J., 2023. "ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS." *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41–47.

Madirimova, S., 2019. "Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi." *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).

Makhmudovna, M. S., 2020. "Text edition issue of mutrib poems." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1262–1274.

Madirimova, S., 2021. "Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy" to'plamida Mutrib she'rlari." *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 1(1).

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan

Gulzira Giyosiddinova¹

Abstract

This article provides information on the life and literary activity of the poet Khudoybergan Akhund, known by the pen name **Ojiz**, who lived and wrote during the late nineteenth and early twentieth centuries. The study primarily focuses on a systematic examination of the poet's manuscript *divans*. In particular, manuscript copies of Ojiz's *divan* preserved in the Main Collection of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under inventory numbers 906/IV, 908/I, and 6700 have been analyzed. Detailed information is presented on the poetic genres represented in these manuscripts, including *ghazals*, *mukhammases*, *musaddases*, *mustazads*, *musabba's*, and *qasidas*.

For the first time, Ojiz's manuscript *divans* have been studied from the perspectives of textual criticism and source studies. The article provides a comprehensive description of the manuscripts, including their contents, volume, paleographic features, scribes, bindings, and physical characteristics. In addition, attention is given to the structural organization of the *divans* and the thematic scope of the poems. The study also offers a scholarly analysis of the poet's *tabi' khud* poems, *takhmises*, *mulamma' ghazals*, and other poetic forms, thereby contributing to a deeper understanding of Ojiz's literary heritage.

Key words: *ghazal*, *takhmis*, *qasida*, *mustazod*, *mulamma'*, *tazmin*.

References

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 906/IV.

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 908/I.

¹ *Giyosiddinova Gulzira* – Researcher, Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: gulziragiyosiddinova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-2908-6877

For citation: G'iyosiddinova, G. 2026. "Description of the manuscripts of the Divan of Ojiz". *Golden Cripts* 1: 77 – 93

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 950.

O'zR FA ShI Asosiy fond, inv. № 6700.

Sirojiddinov, Sh., 2019. *Matnshunoslik saboqlari*. Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi.

Madirimova, S., 2021. *Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi*. f.f.b.f.d. (PhD) diss. Toshkent.

Yusupova, D., 2020. *Aruz va mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Akademnashr.

Murodov, A., 1971. *O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan*. Toshkent: Fan.

Ismoilova, G., 1995. *Feruz davri Xorazm adabiy muhiti*. Filol. fan. nomz. diss. Toshkent.

Jo'raboev, O., 2017. *Matnning matnosti sirlari*. Monografiya. Toshkent: Tamaddun.

Makhmudovna, M. S., Saripul, A. R., & Eisar, J., 2023. "ANALYSIS OF TEXT DIFFERENCES IN MUTRIB'S WORKS." *American Journal Of Philological Sciences*, 3(04), 41–47.

Madirimova, S., 2019. "Mutrib Xonaxarob asarlari qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi." *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 3(3).

Makhmudovna, M. S., 2020. "Text edition issue of mutrib poems." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1262–1274.

Madirimova, S., 2021. "Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy" to'plamida Mutrib she'rlari." *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 1(1).